O’zbekiston-Tojikiston: ilmiy aloqalar kengaymoqda

Shu yilning 14-15-sentyabr kunlari Tojikiston Respublikasining Dushanbe shahrida “Вклад Лидеров Узбекистана и Таджикистана в укреплении дружбы, добрососедства и доверия, открытие новой страницы узбекско-таджикского стратегического партнёрства” mavzusida Tojikiston Milliy Fanlar akademiyasi hamda O’zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan tashkil etilgan ilmiy-amaliy konferensiya bo’lib o’tdi.

O’zbekiston delegatsiyasi rahbari bo’lib O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi o’rinbosari A.Saidovning va O’zbekiston Respublikasining Tojikiston Respublikasidagi Favqulotda va Muxtor elchisi E.Shaismatovning qatnashganliklari Respublikamiz rahbariyati tomonidan bu anjumanga katta ahamiyatni berilganligidan dalolat beradi. Konferensiya ishida O’zbekiston delegatsiyasi safida 20 nafarga yaqin yetuk olim va mutaxassislar ishtirok etdilar.

Konferensiyada O’zbekiston va Tojikiston mamlakatlari siyosiy aloqalarining hozirgi holati va kelajagi, iqtisodiy aloqalar hozirgi holati va kelajagi, O’zbekiston va Tojikiston davlatlari o’rtasidagi ilmiy, madaniy aloqalarning hozirgi holati va kelajakdagi yo’nalishlari bo’yicha plenar va seksiyalardagi majlislarida ellikdan ortiq ma’ruzalar tinglandi.

Ma’ruzalar o’zining dolzarb masalalarni yoritishi, muhokamalarga boyligi va berilgan takliflarning mazmuni hamda ko’pligi jihatidan ajralib turdi. Fanlar akademiyasi olimlari tomonidan yuqorida keltirilgan yo’nalishlar bo’yicha ma’ruzalar qilindi va konferensiya ishtirokchilari tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi.

Konferensiya vaqtida O’zbekiston va Tojikiston mamlakatlari oliy o’quv yurtlari, Fanlar akademiyasi institutlari o’rtasida o’zaro hamkorlikda ilmiy izlanishlar, seminarlar, konferensiyalar hamda o’zaro ilmiy safarlar tashkil qilish bo’yicha kelishimga erishildi.

Xususan, O’zbekiston Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti bilan Tojikiston Fanlar akademiyasi Geologiya, seysmik barqaror qurilish va seysmologiya instituti o’rtasida o’zaro kelishuvlar imzolandi, O’zR FA Yadro fizikasi instituti, Genetika va o’simliklar eksperimental biologiyasi hamda Zoologiya instituti o’rtasida kadrlar tayyorlash, birgalikda ilmiy tadqiqotlar olib borish va ilmiy ishlar himoyasi borasida kelishuvlarga erishildi va hamkorlik Memorandumi imzolanishi rejalashtirilmoqda.